



ASAL ARI ZAHRI VA PROPOLISNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abduhamidov Qudrat Obidjonovich

Ibragimova Firuza Farxodovna

Toshkent viloyati Angren Shahar

Angren Universiteti Davolash Fakulteti o'qituvchisi

+998915038321

+998998968512

Annotatsiya: Asal ari zahrining va propolisning o'ziga xos xususiyatlarini o'ziga xosligini bilish va tibbiyotdagi ahamiyati.

Kalit so'zlar: apitoksin, asal ari zahri, propolis, gistamin glikozidi,

Kirish: Zamonaviy tibbiyot va xalq tabobatida tabiiy moddalar asosida yaratilgan preparatlar salomatlikni tiklash va mustahkamlashda muhim o'rin egallaydi. Ana shunday tabiiy vositalardan biri asal ari zahri va propolisdir. Ari mahsulotlari qadimdan shifobaxsh xususiyatlari bilan mashhur bo'lib, ular inson organizmiga ko'plab ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Asosiy qism. Asala ari zahri apitoksin (lot. apis — asalari, yun. toxikon — zahar) — ishchi asalarilar tanasidagi ipsimon bezlari ajratadigan o'tkir hidli achchiq, och sariq, shaffof suyuqlik. Asal ari zahri tarkibida biologik faol moddalar, fermentlar, erkin aminokislotalar, chumoli, xlorid, ortofosfat kislotalari, gistamin, xolin, triptofan, oltingugurt, magniy fosfat va boshqa moddalar bor. Asalari zahri tarkibidagi ta'sir qiluvchi moddalar gistamin glikozidi, lipidlar, hayvonot saponinlariga yaqin turadigan moddalardan iborat. Zichligi 1,313. Suvda tez, chumoli kislotada va 60°li spirtida sekin eriydi. Asalari chaqqanda 0,2—0,3 mg zahar ajratadi. Asalari chaqqan joyda qattiq og'riq



va shish paydo bo‘ladi. Asalari chaqqan joyga darhol validol eritmasi yoki sarimsoq kesib surtilsa, og‘riq qoladi, shish paydo bo‘lmaydi. Asal ari zahridan tibbiyotda radikulit va bod kasalliklarini davolashda foydalaniladi. Bunda organizm bevosita asalarilarga chaqtiriladi yoki tarkibida asal ari zahri bo‘lgan dorilar qo‘llaniladi. Bu preparatlardan bronxial astma, gipertoniya kasalliklarini davolashda ham foydalanish mumkin. Bod va radikulitni davolashda tarkibida asal ari bo‘lgan **virapin** (1 g virapinda 0,15 mg asal ari zaxri bo‘ladi) surtma hoida qo‘llaniladi. Tarkibida asal ari zahri bor dorilardan qon tomirlarini kengaytirish va moddalar almashinuvini yaxshilashda foydalaniladi.

Propolis – yelimga o‘xshash yopipqoq moddadan iborat. Propolisning kelib chiqishi ilgan aniq o‘rganilmagan. Bu masalada ikki xil fikr yuritilgan. Birinchisi, asalari gulchang bilan ovqatlanganida chang po‘stlogida bo‘ladigan malhamga o‘xshash moddani qusadi va u modda mum bilan aralashib propolisni hosil qiladi. Ikkinchi fikr – asalarilar yopishqoq yelimni daraxt tanasidan, kurtaklaridan oladi. Bu yelimga mum, gulchangi qo‘shib propolis yaratadi. Asalarining propolis ajratadigan so‘lagi yo‘qligi aniqlanganligi uchun, asalarilar propolisni daraxtlar tanasidan, kurtaklaridan olish fikri to‘g‘ri deb hisoblanadi. Propolisni, asalarilar kuz faslida sovuq tushishi arafasida, arixonaning hamma yoriqchalarini suvash uchun ishlatadi. Arixona eshikchalarini, bir necha tor yo‘l qoldirib, boshqa qismini propolis bilan berkitib qo‘yadi. Shuningdek asalarilar propolisni katakchalarni yaltiratish uchun ham ishlatadi. Zararkunandalar: masalan, sichqon arixonaga kirib o‘lib qolsada asalarilar uni propolis bilan suvab qo‘yadi. Propolis bilan suvalgan sichqon o‘ligi aynimaydi. Bahor kelishi bilan asalarichi arixonaning ramkalari ustidagi, eshikchalardagi propolisni sotish uchun yig‘ib oladi. Eng toza propolis arixona eshikchalarini ichki tomonidan olinadi. Ramkalar ustidagi propolis yig‘ilganida mum bilan aralashib qoladi. Propolis mumdan tozalash uchun suvga solinganida, mum suv betiga qalqib chiqadi. Propolisning rangi och sariqdan to‘q qo‘g‘ir tushgacha bo‘ladi. Propolis tarkibi har xil bo‘lib u asalarilar yashayotgan joyda o‘sadigan o‘simliklarga bog‘liq. Propolis 50-55 % propolis smolasi va balzamlardan, 8-10 % xushbo‘y efir moyidan, 30 % gacha propolislangan mumdan va 5 % gulchangidan tashkil topgan. U tibbiyotda, kosmetikada ishlatiladi.



Xulosa: Propolis va asal ari zahri inson salomatligi uchun katta ahamiyatga ega tabiiy moddalar hisoblanadi. Propolis asalari tomonidan o'simlik qatronlari va fermentlardan tayyorlanadigan modda bo'lib, kuchli antibakterial, antifungal va antioksidant xususiyatlarga ega. U immunitetni mustahkamlaydi, yaralarni davolaydi, yallig'lanishga qarshi kurashadi va organizmni toksinlardan tozalashga yordam beradi. Asal ari zahri esa, tibbiyotda keng qo'llaniladigan tabiiy vositalardan biri hisoblanadi. Uning tarkibida melittin, apamin kabi biologik faol moddalar mavjud bo'lib, ular yallig'lanishga qarshi, og'riqni kamaytiruvchi va qon aylanishini yaxshilovchi xususiyatlarga ega. Ari zahri revmatizm, artrit va nevralgik kasalliklarni davolashda samarali vosita hisoblanadi. Umuman olganda, propolis va asal ari zahri qadimdan xalq tabobatida ishlatilib kelinadigan tabiiy davo vositalari bo'lib, ular ilmiy tadqiqotlar asosida zamonaviy tibbiyotda ham keng qo'llanilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://uz.beekeepers.uz/asalarichilik> mahsulotlari
2. www.google.com